



UDK: 811.133.1:811.512.133

Mo'tabar KULDASHEVA,
O'zMU tayanch doktoranti
E-mail: muatabar83@gmail.com

PhD N.Kuldasheva taqrizi asosida

LUG'AT TARKIBINING RIVOJLANISHIDA FRANSUZ ADSTRATIV IZLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz tilidan o'zlashgan so'zlarning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa tarmoqlarda xususiyatlari hamda ularning leksikografik jihatlarini to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, fransuz tilidan yangi so'zlarning kerib kelish davomiyligi, zamonaviy tarmoqlari va yo'nalishlari nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Geografik yaqinlik va siyosiy jihatdan aloqadorlik asosida so'z o'zlashish omillarining adstrat lingvistik termini sifatida berilishi ochib berilgan. O'zbek tiliga zamonaviy fransuz tili ta'sirining ham adstrativ izlar xususiyatlariga mos kelishi asoslab berilgan. Mavzu yuzasidan misollar keltirilib, nazariy tushunchalar tahlil etilgan. Adstrat tushunchasiga yondosh substrat va superstrat kabi terminlar ham tadqiq etilgan. O'zbek tiliga fransuz tilidan kirib kelayotgan zamonaviy so'zlarning adstrativ izlari ekstralingvistik hodisalar orqali namoyon etilgan.

Kalit so'zlar: adstrat, substrat, superstrat, neologizm, impozitsiya, agentivlik, intoks, dezintoks.

ФРАНЦУЗСКИЕ АДСТРАТНЫЕ СЛЕДЫ В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОГО СОСТАВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности слов, заимствованных из французского языка, в социальных, экономических и других сферах, а также их лексикографические аспекты. Теоретически исследуется процесс поступления новых слов из французского языка, их современные области употребления и направления развития. Раскрывается сущность понятия «адстрат» как лингвистического термина, основанного на факторах заимствования, связанных с географической близостью и политическими контактами. Обосновано, что влияние современного французского языка на узбекский язык также проявляется в форме адстратных следов. Приведены примеры по теме, проанализированы теоретические понятия. Также исследованы смежные с понятием «адстрат» термины — «субстрат» и «суперстрат». Современные французские заимствования в узбекском языке демонстрируют адстратные следы через экстралингвистические явления.

Ключевые слова: адстрат, субстрат, суперстрат, неологизм, импозиция, агентивность, интокс, дезинтокс.

FRENCH ADSTRATIVE TRACES IN THE DEVELOPMENT OF THE LEXICAL COMPOSITION

Abstract

This article examines the characteristics of words borrowed from the French language in social, economic, and other domains, as well as their lexicographic aspects. It theoretically investigates the ongoing process of new word adoption from French, their modern domains of use, and directions of development. The concept of “adstratum” as a linguistic term based on factors of borrowing linked to geographical proximity and political relations is revealed. It is substantiated that the influence of modern French on the Uzbek language also corresponds to adstrative features. Examples are provided and theoretical concepts are analyzed. The study also explores terms related to the notion of adstratum — such as substrate and superstrate. Modern French borrowings in the Uzbek language manifest adstrative traces through extralinguistic phenomena.

Keywords: adstratum, substratum, superstratum, neologism, imposition, agentivity, intoks, dezintoks.

Kirish. Chet tilidagi so'zlarning o'zlashganligining asosiy tasdig'i so'z lug'at tarkibida mavjudligi bilan baholanadi. O'zlashma so'zlarning nazariy tadqiqi davomida sanab o'tilgan o'zlashtirish yo'llari, ya'ni asarlar tarjimasi, og'zaki va yozma nutq vositalari orqali chet tilidagi so'zning qo'llanilishi uning o'zlashish jarayonidagi dastlabki bosqichidir. Lug'at tarkibida mavjud so'zlar ularni rasman o'zlashganligini tasdiqlaydi va turli kategoriyalarda qo'llanilish qonuniyatlariga ega bo'ladi.

Demak, yangi kirib kelayotgan chet tiliga, xususan, fransuzcha so'zlar nafaqat nutqimizga, balki lug'at tarkibining ham o'zgarib borishiga ta'sir etib boradi. Mazkur hodisa retsepiyent tilning lug'at tarkibi va undagi kategoriyalarga ham o'zgartirishlar olib kirilishiga turtki bo'lishi mumkin. Ushbu hodisa olim Matteo Giulio Bartoli tomonidan “Adstrat (adstratum)” deb yuritilgan [1].

Adstrat tushunchasi tilshunoslikda, xususan, leksikologiyada turli jihatdan talqin etiladi. Ba'zi manbalar ushbu

tushuncha faqat geografik jihatdan yaqin bo'lgan davlatlar tilining o'zaro ta'sirini anglatadi degan nazariyalarni ilgari sursa, boshqalar esa mazkur ta'sir geografik yaqinlikdan tashqari kesishuv chizig'i, ya'ni vosita til orqali o'zlashish hamda ijtimoiy hayot tarziga qadar kirib borishlikni bildiradi degan fikrni beradi [2]. Fransuz adstrati tushunchasi o'zbek tilidagi gallsizm hamda fransuz madaniyatiga xos hayot tarzini umumlashtirishda qo'llashning nazariy asosini tadqiq etgan holda, mazkur termin qo'llanilish o'rniga aniqlik kiritamiz. Dastlab, adstrat tushunchasining nazariy asoslarini chuqur o'rganish lozim bo'ladi.

Ba'zi manbalarda terminning dastlabki shakli Marius Valkhoff tomonidan 1932-yilda qo'llangani aytiladi, biroq inglizcha “adstratum”ning eng erta yozma dalili sifatida 1939-yilda Joshua Whatmoughdagi qo'llanishni keltiradi. Shunga qaramay, atamaning ta'rif va tasnif darajasida standartlashuvi Bartoli bilan bog'lanadi [3]. Shuningdek, tilshunos olim Matteo Giulio Bartoli tadqiqotida adstrat tushunchasi bilan yonma-yon

tarzda substrat va superstart kabi tushunchalar ham qo'llanilgan.

Adstrat (adstratum) odatda geografik, madaniy yoki institutsional yaqinlik natijasida ikki til o'rtasida o'zaro ta'sir paydo bo'lib, unda hech bir til ikkinchisiga to'liq "bosim" o'rnatmaydi, substrat (surilib ketayotgan tili) va superstratdan (hukmron tili) farqli, adstrat mutanosib ta'sirni nazarda tutadi [4]. Standart ta'riflar ana shu dominatsiyasiz ta'sirni alohida belgilaydi.

Til kontaktining natijalari bo'yicha asosiy ishlanmalar adstratni uzoq muddatli domenlararo leksik ta'sir, hamda ayrim holatlarda kalka darajasidagi ko'chishlar sifatida tasvirlaydi. Winford va keyingi maqolalarda til kontaktidagi natijalarni agentivlik nuqtayi nazaridan farqlash, ya'ni RL agentivty – "qarshi til"ning qabul qiluvchi sifatida so'z olishi, SL agentivty – manba tilning "impozitsiyasi" sifatida taklif qilinadi. Bunda leksika nisbatan beqaror, grammatik tizim nisbatan barqaror qatlam ekani doimiy ravishda qayd etilgan [5].

Til aloqalari natijalarini oldindan cheklovchi mutlaq lingvistik to'siqlar yo'q, ijtimoiy omillar uzatish vektorlarini belgilaydi. Demak, fransuz adstrati uchun oliy darajadagi hayot tarziga tayangan yo'nalishlar, jumladan, moda, gastronomiya, diplomatiya, "magazine" jurnalistikasi ko'proq leksik va diskursiv iz qoldiradi [6]. Adstrat – dominantsiz, ammo barqaror ta'sir, fransuz tili o'zbek tilida asosan leksik va diskursiv qatlamda iz qoldiradi. Agentivlik modeli (Van Coetsem) va barqarorlik gradiyenti (Winford) bu izlarning ko'proq lug'at hamda janr-konvensiyalarda ko'rinishi sabablarini tushuntiradi [7].

XIX–XX asrlarda rus jamiyatida fransuz tili elita tili sifatida e'tibor topgan, ushbu mintaqaning ilmiy-madaniy tarmoqlari orqali Markaziy Osiyo matbuot va lug'at siyosatlariga bilvosita ta'sir ko'rsatgan. Offord–Rjéoutski–Argentning monografiyasi bu tarixiy jarayonni keng yoritadi [8].

Mustaqillikdan keyin bevosita fransuz tili orqali kirib keluvchi so'zlar kanali o'zgardi. O'zbekistonda Alliance Française de Tachkent (kurslar, tadbirlar, sertifikatlar) hamda Institut français d'Ouzbékistan (Campus France tarmog'i) kabi institutlar bevosita fransuz diskursiga kirish nuqtalarini kuchaytirdi. Bunday infratuzilma adstratning zamonaviy vektorlarini (ta'lim, madaniyat, OAV hamkorlik) mustahkamlaydi.

Global ommaviy kommunikatsiya, jumladan, raqamli muhit, sotsial tarmoqlar, xalqaro OAV va festival tarmoqlari (Paris Fashion Week, Cannes va Biennale kontekstlari) orqali fransuz diskursi, xususan, terminlar, rubrikalar, janr andozalari) global aylanishga kirdi, bu jarayon ham bevosita adstrativ ta'sir berishi mumkin.

Fransuz adstrati uchun ikki sinergik kanal mavjud: tarixiy-bilvosita (rus tili orqali) va zamonaviy-bevosita (institutsional hamkorlik, global OAV). Birinchisi leksik izlar bazasini yaratgan bo'lsa, ikkinchisi diskursiv formatlar va janrlarni olib kiradi.

Diplomatik va madaniy diskurs, protokol hamda madaniy diplomatiyada fransuzcha terminlar va qoliqlar (attaché culturel, francophonie, protocole, communiqué) ishlatilishi keng, bunday birliklar ko'pincha kollokatsion muhit bilan (communiqué officiel, note verbale) birga o'rtnashadi. Adstratning bu sohasi semantik qiymat belgisini ham olib kiradi.

Parij moda va "haute couture"ning normativ markazi bo'lib, FHCM (Fédération de la Haute Couture et de la Mode) Paris Fashion Week va Haute Couture Weekni muvofiqlashtiradi; "haute couture" atamasi kasbiy va huquqiy jihatdan himoyalangan, qaysi uylar "haute couture" maqomiga ega bo'lishi qat'iy ro'yxat bilan belgilanadi. Shu sababli haute

couture, couture, prêt-à-porter singari birliklar o'zbek matnlarida ko'pincha o'z shaklida (transliteratsiya) va ma'lum kollokatsion juftliklar bilan (défilé, maison, atelier) ishlatiladi.

Fransuz gastronomik diskursida terroir "mahsulotning mintaqaviy o'ziga xosligi, tuproq-iqlim-an'ana majmuasi"ni anglatuvchi markaziy tushuncha, sommelier esa restoranda vino xizmatining mutaxassisi sifatida tushuniladi. Mazkur birliklar o'zbek tilida ham ko'pincha prestij signali sifatida ishlatiladi (fransuzcha shaklni saqlagan holda, izohiy tarjima bilan).

Fransuz OAVda location touristique / saisonnière (Airbnb tipidagi qisqa muddatli ijara) bo'yicha me'yoriy munozaralar muntazam yoritiladi, shu diskursdan kirib kelayotgan location birligi o'zbek matnlarida ba'zan "lokatsiya" (joylashuv) bilan adashadi, holbuki fransuzchada ijara ma'nosidir. Bu – adstratning ogohlantiruvchi tomoni.

Le Magazine du Monde singari qo'shimcha formatlar (uzun reportaj, portret, esse, "dossier"lar) global jurnalistikada janr andozasi sifatida tarqalgan, o'zbek matbuotidagi haftalik, oylik qo'shimchalarda ham shunday konstruksion izlar ko'rinishi mumkin. Domen xaritalari shuni ko'rsatadiki, fransuz adstrati o'zbek lug'at tarkibida nafaqat so'z darajasida, balki janr, kollokatsiya va "qiymat prozodiyasi" darajasida ham faol iz qoldiradi, masalan: haute couture – prestij, terroir – autentiklik, location – me'yoriy munozara, magazine – narrativ format.

Shuningdek, konstruksion va frazeologik kalkalar: leksikadan "ustki" qatlamda ham fransuz adstratini ko'rish mumkin. Matn-andaza va "rubrika iqtisodi" ham aynan fransuz OAV uslubiga xosdir. Fransuz jurnalistikasi ko'p hollarda "kirish–voqealik–tahlil–intervyu–xulosa" singari kompozitsion andozalarni standartlashtiradi, bu, "magazine qo'shimcha"larda ikki tilli muharririylar orqali diffuziya qiladi. Natijada, konstruksion kalkalar (rubrika nomlari, bo'limlar ketma-ketligi) adstratning ko'zga ko'rinmas qatlamini tashkil etadi.

Diskursiv etiketlar hisoblangan intox va désintox ham aynan mazkur yo'nalishga xosdir. "Le Monde"ning Décodeur (faktchek) loyihasi atrofida intox (feyk/dezinformatsiya) etiketi keng tarqaldi; bunday rubrikatsiya va til birikmalari (désintox) adstratning diskursiv metama'nosini yetkazuvchi bo'lib, "tekshiruv", "verifikatsiya" hamda "profilaktika" kabi usullar orqali ifodalangani.

Fransuz adstrati frazeologik va tekstologik darajada ham ko'rinadi. Sarlavha qoliqlari, rubrika etiketi, faktchek retorikasi – bular leksikani "ustundan" shakllantirib, o'zbek matbuotida janr va ohangga ta'sir ko'rsatadi. Haute couture (prestij, eksklyuzivlik), terroir (autentiklik, an'ana), magazine (estetika, uzun format) kabi birliklar atrofida ijobiy prozodiya jamlanadi; bu prozodiya ko'p hollarda tarjimada "oddiiy gloss" bilan yo'qolib ketadi. FHCM (kichik mahsulotlarga oid moda manbalari) va ommaviy moda diskursi – mazkur prozodiya uchun institutsional tayanch hisoblanadi.

Location hoida esa adstrat shaffof emas: fransuzchadagi "ijara" semasi inglizcha "location (joy)" bilan chalkashishi mumkin. Shuning uchun lug'atlarda ogohlantiruvchi etiket (FR: location = ijara) va kollokatsion misollar (location saisonnière, location meublée)ni berish zarur. Kollokatsion prozodiya adstratning "ma'no ustiga uslub" ta'siri sifatida baholanadi. Haute couture va terroir kabi birliklarda prestij/avtentiqlik signali, locationda me'yoriy signal ustuvor, shuning uchun lug'at va o'qitishda bu signallarni ko'rsatish muhim [9].

Leksik moslashuvni qayta ta'riflash o'rniga, fransuz kelib chiqishli o'zaklar bilan o'zbekcha yasaliish vositalari (-chi, -lik, birikmalar)ning real korpusdagi chastotasini o'lovga aylantirish – bu adstrativ integratsiyaning miqdoriy indikatori bo'ladi.

Yuqoridagi o‘zlashtirish jarayoni quyidagi metodlar orqali amalga oshadi:

korpusdan fransuz o‘zakli birliklar ro‘yxati chiqariladi; ular bilan o‘zbekcha affikslar va kollokatsiyalar juftlashtiriladi;

domen bo‘yicha dispersion va yarim umr (vaqt bo‘yicha pasayish) qiymatlari hisoblanadi;

registr (OAV/ilmiy/reklama) kesimida farqlar chiqariladi.

Bu yondashuv Winfordning barqaror gradientiga mos keladigan empirik metrikaning lokallashtirilgan variantidir

[10]. Mazkur metrika orqali lug‘at tarkibidagi fransuz adstratining qanchalik “o‘zbeklashgan”ini ko‘rsatadigan texnik ko‘rsatkichlar aniqlanishi mumkin, jumladan, faqat mavjudlik emas, foydalanish hamda yasali darajasi ham inobatga olinadi.

O‘zbek tilida fransuz adstratini o‘rganishda transliteratsiya va orfografiya siyosati va praktik qoidalarini ham tadqiq etish zaruriyati mavjud bo‘lib, ushbu talab fransuz tilini o‘rganish jarayoni uchun samarali ko‘rsatkich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Bartoli, M. G. “Substrato, superstrato, adstrato” // *Rapports du Ve Congrès international des linguistes* (Bruges, 28 août–2 septembre 1939). – Bruges : Imprimerie Sainte-Catherine, 1939. – P. 59–65.
2. Krefeld, T. “Methodische Grundfragen der Strataforschung” // *Romanische Sprachgeschichte / Histoire linguistique de la Romania*. – Eds.: G. Ernst; M.-D. Gleßgen; C. Schmitt; W. Schweickard. – Berlin; New York : Walter de Gruyter, 2003. – P. 555–568.
3. https://api.pageplace.de/preview/DT0400.9789027275301_A24765295/preview-9789027275301_A24765295.pdf?utm_source
4. <https://www.oxfordreference.com/display/10.1093/acref/9780199202720.001.0001/acref-9780199202720-e-81>
5. Van Coetsem, F. *A General and Unified Theory of the Transmission Process in Language Contact*. – Heidelberg : Universitätsverlag C. Winter, 2000. – 326 p.
6. Winford, D. *An Introduction to Contact Linguistics*. – Oxford : Wiley-Blackwell (Blackwell Publishing), 2003. – 434 p.
7. https://www.asc.ohio-state.edu/winford.1/pdf/contact_induced_proofs.pdf?utm_source
8. Offord, D.; Rjéoutski, V.; Argent, G. *The French Language in Russia: A Social, Political, Cultural, and Literary History*. – Amsterdam : Amsterdam University Press, 2018. – 542 p.
9. https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/terroir/77475?utm_source
10. Winford, D. *An Introduction to Contact Linguistics*. – Oxford : Wiley-Blackwell (Blackwell Publishing), 2003. – 434 p.